



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O'zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo'yimoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta'minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta'minlashda parlamentning o'rni va mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o'ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o'zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta'minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o'rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta'minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo'nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

ikkinchidan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to'rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to'qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH — BARQAROR TARAQQIYOT OMILI	111
Jo'rayev Komiljon Begmonovich	
Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAHAR VA SANOAT HUDUDLARINI «YASHIL» ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI	114
Berdiqulova Munira Faxriddin qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	118
Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi	
EKOLOGIK MASALALARDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI	123
Ergasheva Nodira Toxir qizi	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV SIYOSATIDA FARG'ONA VILOYATINING YEROSTI SUVLARI MONITORINGI.....	127
Abdulxayev Zoxidjon	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENT NAZORATINING NATIJADORLIGI: INSTITUTSIONAL MEZONLAR.....	132
Saburova Juldizxan Axmetovna	
O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHINING AMUDARYO HAVZASI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI SUV RESURLARI HAMDA QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIRI	137
Mamadiyarov Dilshod Uralovich	
Xodjiyev Alisher Kuldashevich	
IQLIM O'ZGARISHINING ZAYTUN NAVLARINING GULLASHIGA TA'SIRI.....	140
Yormatova D.Y.	
Xaydarkulov S.	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	143
Jo'rayeva Shahina Narzullayevna	
IQLIM MUAMMOLARI VA ULARNI YUMSHATISHGA DOIR AMALIY YECHIMLAR.....	146
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
Qodirova Shahnoza Ziyodulloyevna	
YASHIL BELBOG'LAR NEGA KERAK?.....	149
Yormatova Dilorom Yormatovna	
MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI: XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI VA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	154
Sharipova Diyora Botirovna	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK MADANIYAT VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	158
Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li Hakimova Mahbuba	
EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI.....	163
Qutlymuratov Baxitbay Xojabayevich	
ARASTUNING ONG VA TABIAT HAQIDAGI TA'LIMOTINING SHARQ FALSAFASIGA TA'SIRI.....	166
Umaraliyeva Gulchexra Baxodirjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВОЧНОЙ ИНДУСТРИИ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ.....	169
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
TALABA-YOSHLARDA EKOLOGIK-HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	172
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
MINTAQAVIY EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA O'RMON FONDI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HAMDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	177
Egamberdiyev Shaxzod Baxodir o'g'li	
MARKAZIY O'ZBEKISTON SUV QUSHLARI GELMINTOFAUNASINING HUDUDLAR KESIMIDA TAQSIMLANISHI	182
Soliyeva Gulnoza Daniyarovna	
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОЛУЧЕНИЯ ТОФУ ИЗ СОЕВОГО МОЛОКА С ПРИМЕНЕНИЕМ РАЗЛИЧНЫХ КОАГУЛЯНТОВ И ОЦЕНКА ЕГО КАЧЕСТВА	185
Ш. А. Ишниязова Д. Нурвафаева К. О. Додаев	
PARIJ IQLIM BITIMI VA BRM 13-MAQSADINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT DIPLOMATIYASI: XALQARO MAJBURIYATLARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	188
Abdullayeva Shahlo Shokir qizi Muitov Davron Sabirovich	



PARIJ IQLIM BITIMI VA BRM 13-MAQSADINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT DIPLOMATIYASI: XALQARO MAJBURIYATLARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI

Abdullayeva Shahlo Shokir qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
E-mail: abdullayevashahlo1603@gmail.com

Muitov Davron Sabirovich
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti
E-mail: muitovdavron@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda Parij iqlim bitimi hamda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 13-maqsadini (Iqlim bo'yicha harakatlar) amalga oshirishda parlament diplomatiyasining o'rnini tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro iqlim majburiyatlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish mexanizmlari, xususan, O'zbekiston Respublikasining Milliy darajada belgilangan hissalar (NDCs) va parlamentlararo hamkorlik tajribasi o'rganilgan. Qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil asosida parlament diplomatiyasining ekologik hamkorlikni rivojlantirish, yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda iqlim qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot yakunida parlament nazoratini takomillashtirish va iqlim diplomatiyasi doirasidagi parlamentlararo muloqotni rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Parij bitimi, BRM 13-maqsad, parlament diplomatiyasi, iqlim diplomatiyasi, Milliy darajada belgilangan hissalar (NDCs), qonunchilik integratsiyasi, garmonizatsiya, Oliy Majlis.

Abstract. This thesis analyzes the role of parliamentary diplomacy in implementing the Paris Climate Agreement and the 13th Sustainable Development Goal (Climate Action) of the United Nations Sustainable Development Goals in addressing global climate change. The study examines the mechanisms for integrating international climate commitments into national legislation, particularly Uzbekistan's Nationally Determined Contributions (NDCs) and interparliamentary cooperation practices. Based on comparative legal and systematic analysis, the significance of parliamentary diplomacy in developing environmental cooperation, supporting green investments, and harmonizing climate legislation with international standards is highlighted. The study provides recommendations for improving parliamentary oversight and developing interparliamentary dialogue within climate diplomacy.

Keywords: Paris Agreement, SDG 13, parliamentary diplomacy, climate diplomacy, Nationally Determined Contributions (NDCs), legislative integration, harmonization, Oliy Majlis.

Аннотация. В данной тезисе анализируется роль парламентской дипломатии в реализации Парижского климатического соглашения и 13-й цели устойчивого развития ООН (Борьба с изменением климата) в условиях глобального изменения климата. В исследовании рассматриваются механизмы интеграции международных климатических обязательств в национальное законодательство, в частности Национально определяемые вклады (NDCs) Республики Узбекистан и опыт межпарламентского сотрудничества. На основе сравнительно-правового и системного анализа раскрывается значение парламентской дипломатии в развитии экологического сотрудничества, поддержке зелёных инвестиций и гармонизации климатического законодательства с международными стандартами. В заключении представлены предложения по совершенствованию парламентского контроля и развитию межпарламентского диалога в сфере климатической дипломатии.

Ключевые слова: Парижское соглашение, ЦУР 13, парламентская дипломатия, климатическая дипломатия, Национально определяемые вклады (NDCs), интеграция законодательства, гармонизация, Олий Мажлис.



KIRISH


XXI asrda global iqlim o'zgarishi shunchaki ekologik muammo ramkasidan chiqib, xalqaro xavfsizlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish va inson huquqlarining ajralmas omiliga aylandi. Atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining ortishi, transchegaraviy suv resurslarining qisqarishi va anomalialarning ko'payishi xalqaro hamjamiyatdan tezkor va integratsiyalashgan choralarni ko'rishni talab etmoqda [1]. Bu borada 2015-yilda qabul qilingan Parij iqlim bitimi hamda BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan Kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarining 13-maqsadi (Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) global sa'y-harakatlarni birlashtiruvchi asosiy xalqaro-huquqiy platforma vazifasini o'tamoqda [2, 3]. Biroq, xalqaro darajada erishilgan kelishuvlar va qabul qilingan konvensiyalarning samaradorligi ularning milliy darajada qay darajada tatbiq etilishiga bevosita bog'liqdir. Aynan shu nuqtada xalqaro munosabatlarning nisbatan yangi, ammo jadal rivojlanayotgan yo'nalishi — parlament diplomatiyasi alohida ahamiyat kasb etadi [4]. Parlamentlar xalqaro majburiyatlarni ratifikatsiya qilish, ularni milliy qonunchilikka integratsiya qilish (garmonizatsiya), iqlim kun tartibini moliyalashtirish uchun davlat budjetini ajratish hamda ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini o'rnatishda hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi ham iqlim diplomatiyasida faol ishtirok etib, Parij bitimi doirasida 2030-yilga kelib issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma tashlamalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga kamaytirish bo'yicha yangilangan Milliy darajada belgilangan hissalarini (NDCs) qabul qildi. Ushbu strategik maqsadlarga erishish Oliy Majlis palatalari zimmasiga qonunchilikni takomillashtirish va parlamentlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish mas'uliyatini yuklaydi.

1. Parij bitimi va BRM 13-maqsadining xalqaro va milliy huquqiy asoslari

Global iqlim arxitekturasining huquqiy poydevori hisoblangan Parij iqlim bitimi (2015) xalqaro huquqqa "pastdan yuqoriga" (bottom-up) tamoyiliga asoslangan yangi institutsional tartibni kiritdi [2]. Kyoto bayonnomasi (1997) kabi yuqoridan belgilangan majburiy kvotalardan farqli o'laroq, Parij bitimining o'zagi davlatlarning suveren huquqlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilaydigan Milliy darajada belgilangan hissalar (NDCs – Nationally Determined Contributions) mexanizmiga tayanadi [2, 5]. Bitimning 4-moddasiga muvofiq, har bir ishtirokchi davlat o'zining iqlim maqsadlarini muntazam yangilab borishi va ularga erishish uchun ichki huquqiy-ma'muriy choralarni ko'rish shart.

Ushbu xalqaro-huquqiy rejim BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 13-maqsadi (Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) bilan uzviy bog'liqdir. BRM 13-maqsadi iqlim xatarlarini milliy strategiyalar va rejalarga integratsiya qilishni (13.2-vazifa) hamda ekologik institutsional salohiyatni oshirishni (13.3-vazifa) talab etadi [6].



1-rasm. Iqlim majburiyatlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish modeli¹

1 Manba: Muallif ishlanmasi.



O'zbekiston Respublikasi ushbu global jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida 2018-yilda Parij bitimini ratifikatsiya qildi va 2021-yilda o'zining Yangilangan Milliy darajada belgilangan hissalarini (NDCs) e'lon qildi. Yangilangan strategiyaga muvofiq, O'zbekiston 2030-yilga borib issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot (YIM) birligiga nisbatan solishtirma tashlamalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga kamaytirish bo'yicha aniq majburiyat oldi [7]. Ushbu natijaga erishish iqtisodiyotning energiya sig'imini qisqartirish va milliy qonunchilikni xalqaro ekologik standartlarga moslashtirishni talab etadi.

2. Iqlim kun tartibini ilgari surishda parlament diplomatiyasining institutsional mexanizmlari va xalqaro tajriba

Zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasida parlament diplomatiyasi davlatlar o'rtasidagi an'anaviy diplomatiyani to'ldiruvchi, xalqaro majburiyatlarning huquqiy legitimligini ta'minlovchi va transchegaraviy muloqotni yurituvchi "ikkinchi yo'lak" (Track II diplomacy) sifatida e'tirof etiladi. Iqlim va ekologik diplomatiyada parlamentlarning ishtiroki quyidagi institutsional kanallar orqali namoyon bo'ladi:

– **Parlamentlararo Ittifoq (IPU) va BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi ramka konvensiyasi (UNFCCC):** IPU har yili o'tkaziladigan COP iqlim sammitlari doirasida Parlamentlar forumini tashkil etib, iqlim qonunchiligi bo'yicha tajriba almashish imkonini beradi.

– **Mintaqaviy parlamentlararo muloqot:** Markaziy Osiyodagi transchegaraviy ekologik va suv resurslaridan unumli foydalanish muammolarini hal etishda parlamentlararo komissiyalar muhim muloqot maydoni hisoblanadi.

– **Iqlim moliyasini (Climate Finance) huquqiy nazorat qilish:** Parlamentlar Yashil iqlim jamg'armasi (GCF) va xalqaro moliya institutlari kreditlarining maqsaddan og'ishmay ishlatilishini davlat budjeti orqali nazorat qiladi.

3. Xalqaro majburiyatlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish amaliyoti (O'zbekiston misolida)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi so'nggi yillarda Parij bitimi va BRM 13-maqsadidan kelib chiqadigan majburiyatlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish bo'yicha muhim institutsional va huquqiy qadamlarni tashladi. Xususan, Oliy Majlis palatalari huzurida Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha Parlament komissiyasi yo'lga qo'yildi va rivojlantirildi. Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan va iqlim kun tartibini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlarning akademik tahlili quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

1-jadval

Iqlim majburiyatlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari

Hujjat nomi va qabul qilingan yili	Parij bitimi va BRM 13 bilan bog'liqligi	Qonunchilikdagi amaliy va huquqiy ta'siri
"Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonun (2019) [8]	Parij bitimining dekarbonizatsiya va energiya balansida yashil manbalar ulushini oshirish talabi	Qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilarga soliq va bojxona imtiyozlarini berishning huquqiy asosini yaratdi.
"Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qonun (Yangi tahriri) [9]	NDCs maqsadlarida ko'rsatilgan energiya intensivligini kamaytirish vazifasi	Sanoat korxonalari va bino-inshootlarda majburiy energetik audit hamda "yashil bino" (<i>Green Building</i>) standartlarini kiritdi.
"Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun (2020) [10]	BRM 13.1-vazifa: Iqlim xatarlariga moslashuv va erta ogohlantirish tizimlari	Iqlim o'zgarishi monitoringi va iqlimiy xatarlarni baholashning huquqiy statusini mustahkamladi.

O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish yo'nalishlari va ularni parlament diplomatiyasi mexanizmlari orqali rivojlantirish imkoniyatlari.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqlim kun tartibidagi faolligi hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga qaramay, Parij iqlim bitimi va BRM 13-maqsadidan kelib chiqadigan majburiyatlarni milliy qonunchilikka to'liq va samarali integratsiya qilish bo'yicha takomillashtirish talab etiladigan ayrim tizimli va amaliy yo'nalishlar mavjud:

MRV (Monitoring, Reporting, Verification) milliy qonunchilik bazasining yo'qligi: Mamlakatda issiqxona gazlari tashlamalarini qat'iy monitoring qilish, xalqaro standartlar bo'yicha hisobot berish va ularni mustaqil audit (tekshiruv)dan o'tkazishning yagona hamda majburiy milliy huquqiy mexanizmi yetarlicha shakllanmagan.



Uglerod savdosi (Carbon Trading) huquqiy ramkasining to'liq rivojlanmagani: Xalqaro uglerod bozorlarida (Parij bitimining 6-moddasi) ishtirok etish, milliy uglerod kreditlarini shakllantirish hamda "yashil obligatsiyalar" (Green Bonds) muomalasini tartibga soluvchi parlament va huquqiy mexanizmlar yetarlicha moslashtirilmagan.

ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarining yetishmasligi: Yirik sanoat korxonalari, moliyaviy-bank sektori va xususiy subyektlar uchun atrof-muhit muhofazasi, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruvga oid majburiy ESG standartlarini joriy etish hamda ularning ijrosini nazorat qilish mexanizmlari qonunchilikda o'z aksini topmagan.

Parlament diplomatiyasi va qonunchilik orqali taklif etiladigan yechimlar

Ushbu huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va iqlim majburiyatlarini samarali amaliyotga aylantirishda parlament diplomatiyasi hamda Oliy Majlisning qonunchilik faoliyatida quyidagi ustuvor qadamlarni amalga oshirish lozim:

"Iqlim o'zgarishi to'g'risida"gi bazaviy qonunni qabul qilish: Tarqoq holatdagi ekologik normalarni birlashtiruvchi, dekarbonizatsiya maqsadlari, MRV tizimi va iqlimga moslashuv strategiyalarining majburiylikni belgilovchi yagona ramkaviy va yaxlit huquqiy mexanizmi shakllantirish maqsadga muvofiq..

Xalqaro parlament tajribasini integratsiya qilish: Parlamentlararo Ittifoq (IPU), Yevropa Parlamenti va rivojlangan mamlakatlar parlamentlari bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish orqali Yevropaning uglerod chegarasi bo'yicha tuzatish mexanizmi (CBAM) va iqlim qonunchiligi modellarini O'zbekiston sharoitiga garmonizatsiya qilish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, XXI asrda global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish hamda Parij iqlim bitimi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining 13-maqsadi (BRM 13) ijrosini ta'minlashda parlament diplomatiyasi shunchaki to'ldiruvchi vosita emas, balki xalqaro majburiyatlarning milliy darajada amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlovchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi.

Olib borilgan akademik tahlillar natijasida bir qancha muhim xulosalarga erishildi. Birinchidan, Parij bitimining Milliy darajada belgilangan hissalar (NDCs) mexanizmi davlatlar zimmasiga ichki qonunchilikni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2030-yilga borib issiqxona gazlari tashlamalarini 35 foizga kamaytirish bo'yicha olingan majburiyat milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan tizimli garmonizatsiya qilishni talab etadi.

Ikkinchidan, Oliy Majlis va xalqaro parlamentar tuzilmalar (IPU, YeXHT PA) o'rtasidagi hamkorlik iqlim kun tartibini ilgari surishda uchta asosiy yo'nalishda — qonunchilikni takomillashtirish, yashil iqtisodiyot investitsiyalariga huquqiy kafolat berish hamda davlat budjeti va xalqaro iqlim fondlari mablag'lari ijrosi ustidan parlament nazoratini o'rnatishda yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda.

Uchinchidan, amaldagi ekologik va energetik qonunlar qabul qilinganiga qaramay, O'zbekiston qonunchiligida yagona va yaxlit "Iqlim to'g'risida"gi qonunning mavjud emasligi, issiqxona gazlarini monitoring qilish va tekshirish (MRV) tizimining imperativligi hamda uglerod bozorlarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning yetarlicha rivojlanmagani Parij bitimi doirasidagi imkoniyatlardan to'liq foydalanishni cheklovchi omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari hamda iqlim diplomatiyasi amaliyoti uchun quyidagi aniq taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, tarqoq norma va hujjatlarni birlashtiruvchi, 2030 va 2050-yillargacha bo'lgan dekarbonizatsiya maqsadlarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi hamda iqlim moslashuvi strategiyalarini belgilovchi yagona va bazaviy "Iqlim o'zgarishi to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish lozim.

Ikkinchidan, yirik sanoat korxonalari uchun issiqxona gazlari tashlamalarini majburiy audit qilish va hisobot berish (MRV) mexanizmlarini huquqiy jihatdan belgilash hamda Parij bitimining 6-moddasiga mos holda milliy uglerod bozori va yashil moliyalashtirish huquqiy poydevorini yaratish zarur.

Uchinchidan, Oliy Majlis huzuridagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha Parlament komissiyasi va Ekologiya qo'mitasining iqlim moliyalashtirishini nazorat qilish vakolatlarini kengaytirish hamda Yevropa Parlamenti va rivojlangan mamlakatlar parlamentlari bilan iqlim qonunchiligi bo'yicha muntazam parlamentlararo muloqotlarni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IPCC. *Climate Change 2023: Synthesis Report. Contribution of Working Groups I, II and III to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change*. — Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change, 2023. — 184 p.



2. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). *Paris Agreement*. — Bonn: UNFCCC, 2015. — 27 p.
3. United Nations. *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015. A/RES/70/1*. — New York: United Nations, 2015. — 35 p.
4. Beetham, D. *Parliament and Democracy in the Twenty-First Century: A Guide to Good Practice*. — Geneva: Inter-Parliamentary Union, 2006. — 216 p.
5. Falkner, R. The Paris Agreement and the new logic of international climate politics // *International Affairs*. — 2016. — Vol. 92, No. 5. — P. 1107–1125.
6. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. *O'zbekiston Respublikasining Parij bitimi doirasidagi Yangilangan Milliy darajada belgilangan hissalari (NDCs)*. — Toshkent, 2021.
7. Stavridis, S., Jancic, D. (eds.). *Parliamentary Diplomacy in European and Global Governance*. — Leiden; Boston: Brill Nijhoff, 2017. — 344 p.
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida" O'RQ–539-son, 2019-yil 21-may. — Toshkent, 2019. — URL: <https://lex.uz/docs/-4346831> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
9. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida" (O'RQ–940-son, 2024-yil 7-avgust). — Toshkent, 2024. — URL: <https://lex.uz> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
10. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida" O'RQ–745-son, 2022-yil 12-yanvar. — Toshkent, 2022. — URL: <https://lex.uz/docs/-5819317> (murojaat sanasi: 02.08.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

